

O‘ZBEKISTONDA SIRKULYAR IQTISODIYOT MODELINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

UO‘K (UDK): 330.15:338.45

*Sodikov Zokir Rustamovich,
iqtisodiyot fanlari nomzodi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti
orcid 0000-0002-0195-4573.*

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish imkoniyatlari iqtisodiy, ekologik va institutsional nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, yashil iqtisodiyotga o‘tish omillari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston sharoitida sirkulyar iqtisodiyot modelini rivojlantirish uchun mavjud salohiyat, xususan qayta ishlash sanoati, investitsiya imkoniyatlari va davlat siyosati asosiy omil sifatida baholanadi. Tadqiqot natijasida ushbu modelni joriy etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. sirkulyar iqtisodiyot, resurs samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, iqtisodiy imkoniyatlar.

OPPORTUNITIES FOR IMPLEMENTING THE CIRCULAR ECONOMY MODEL IN UZBEKISTAN

*Sodikov Zokir Rustamovich, PhD.,
Associate Professor of the Department of Islamic Economics and Finance
and Pilgrimage Tourism,
International Islamic Academy of Uzbekistan.*

Annotation. This study examines the opportunities for implementing the circular economy model in Uzbekistan from economic, environmental, and institutional perspectives. It focuses on resource efficiency, waste management systems, and the transition to a green economy. The research evaluates the existing potential in Uzbekistan, including recycling industries, investment opportunities, and government policies. Based on the analysis, practical recommendations are proposed for effective implementation of the circular economy model.

Keywords. Circular economy, resource efficiency, waste recycling, green economy, sustainable development, environmental policy, economic opportunities.

ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Содиков Зокир Рустамович,
кандидат экономических наук, доцент кафедры исламской
экономики и финансов, паломнического туризма
Международной академии исламоведения Узбекистана.*

Аннотация. В данном исследовании анализируются возможности внедрения модели циркулярной экономики в Узбекистане с экономической, экологической и институциональной точек зрения. Рассматриваются вопросы эффективного использования ресурсов, развития системы переработки отходов и перехода к зеленой экономике. Оценивается потенциал Узбекистана, включая перерабатывающую промышленность, инвестиционные возможности и государственную политику. В результате предлагаются практические рекомендации по внедрению данной модели.

Ключевые слова. Циркулярная экономика, эффективность ресурсов, переработка отходов, зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая политика, экономические возможности.

Kirish. Hozirgi davrda global iqtisodiyotda resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning kuchayishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini talab qilmoqda. Zero, an'anaviy chiziqli iqtisodiyot modeli resurslarning ayovsiz ishlatilishiga va tez tugashiga, chiqindilar hajmining keskin ortishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan sirkulyar iqtisodiyot modeli resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va iqtisodiy tizimni yopiq sikl asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois, O'zbekiston uchun ushbu modelni joriy etish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Chunki mamlakatda sanoatlashuv jarayonlari jadallashmoqda va ekologik muammolar ortib bormoqda. Shu bilan birga, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligi va undan samarali foydalanish ustuvor ekanligi nazardan chetda qolmasligi kerak.

O'zbekiston sirkulyar iqtisodiyot modelini rivojlantirish uchun katta iqtisodiy va institutsional imkoniyatlarga ega mamlakat hisoblanadi. Xususan, mamlakatda avvalo, normativ-huquqiy asoslarning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda ekologiya va chiqindilarni boshqarish bo'yicha muhim rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Bularga, Chiqindilarni boshqarish strategiyasi (2019–2028), Yashil iqtisodiyot strategiyasi (2019–2030) va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha davlat dasturlarini namuna sifatida keltirish mumkin. Aynan, ushbu rasmiy hujjatlar sirkulyar iqtisodiyot joriy etilishi va rivojlanishining institutsional asosini tashkil etmoqda. Bunda mamlakat uchun eng

muhim jihatlardan biri qayta ishlash sanoatining rivojlanish imkoniyatining ta'minlangani hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda chiqindilarni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan 300 ga yaqin korxonalar faoliyat yuritayotgani katta yutuq hisoblanadi. Masalan, plastikni qayta ishlash va resursga aylantirish, qog'ozni qayta ishlash va xomashyo sifatida foydalanish mumkin bo'lgan holatga keltirish, metall chiqindilarni qayta ishlash va xomashyoga aylantirish, rezina chiqindilarni qayta ishlash borasidagi faoliyat olib borayotgan korxonalar ahamiyat kasb etadi. Chunki, bular mamlakatda sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishi uchun muhim sanoat bazasini yaratadi va istiqbolli tendensiyalarning yo'nalishlarini belgilab beradi. Bundan tashqari, energiya ishlab chiqarishda chiqindidan foydalanish tabiiy resurs zaxirasi barqarorligini ta'minlash va ekologik muammolarning oldini olish, chiqindilarni samarali boshqarish va undan unumli iste'foda qilish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, kelajakda chiqindidan energiya ishlab chiqarish katta iqtisodiy imkoniyatlar yaratib beradi. Masalan, 2027-yilgacha chiqindilarni yoqish asosida 11 ta elektr stansiya qurish rejalashtirilgan bo'lib, ular yiliga 2,1 milliard kWh elektr energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Bu esa mamlakatda energiya ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga, chiqindilar hajmini kamaytirishga va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Milliy ishlab chiqarishda sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish imkoniyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish tadqiqotning **asosiy maqsad** hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari. Maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot vazifalari:

- Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va resurslardan foydalanish nuqtai nazaridan sirkulyar modelning nazariy asoslarini o'rganish;
- Sirkulyar iqtisodiyot bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish;
- Milliy iqtisodiyotda bu borada mavjud imkoniyatlarni baholash;
- Institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash;
- Sirkulyar modelni joriy etish borasida amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti – bu milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish amaliyoti va unda resurslardan foydalanish tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti – bu sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish jarayonida kelib chiqadigan iqtisodiy va institutsional munosabatlardan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, qiyosiy (komparativ) tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy baholash metodlariga asoslanilgan.

Mazkur tadqiqot sirkulyar iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi hamda rivojlanayotgan davlatlar sharoitida ushbu modelni joriy etishning ilmiy asoslarini boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati sifatida davlat siyosatini shakllantirishda, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishda va yashil iqtisodiyotga o‘tishda foydalanish mumkin.

Muhokama. Milliy ishlab chiqarish tizimida sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish uchun muayyan institutsional, iqtisodiy va resurs bazasi mavjud. Biroq ushbu imkoniyatlar bilan bir qatorda tizimli muammolar ham mavjudligi inobatga olinishi zarur. Milliy ishlab chiqarishdagi imkoniyatlar (Opportunities) sifatida chiqindilarni qayta ishlash sanoatining rivojlanishi so‘nggi yillarda chiqindilarni qayta ishlash sohasi sezilarli darajada rivojlanmoqda. Mamlakatda 300 ga yaqin qayta ishlash korxonalarini faoliyat yuritmoqda. Masalan, plastik chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini (PET butilkalarni granula holiga keltirish), qog‘oz chiqindilaridan karton ishlab chiqaruvchi zavodlarini, metall chiqindilarini qayta eritish orqali xomashyo olish amaliyotlarini ko‘rsatish mumkin. Xususan, Toshkent viloyatidagi ayrim kompaniyalar plastik chiqindilarni qayta ishlash asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarmoqda, shuningdek, Namangan va Andijonda qog‘ozni qayta ishlash korxonalarini ichki bozorni qisman bu mahsulotlar bilan ta‘minlamoqda. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, chiqindilar endi faqat chiqindi emas, balki iqtisodiy resursga aylanmoqda.

Mamlakatda, ekologik siyosatining kuchayishi sifatida so‘nggi yillarda davlat tomonidan ekologiya va sirkulyar iqtisodiyot yo‘nalishida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari, maxsus ekologik tashkilot va agentliklarning tashkil etilishi, qayta ishlashni rag‘batlantiruvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul

qilinishi shular jumlasidandir. Xususan, chiqindilarni saralash tizimini joriy etish bo'yicha pilot loyihalar amalga oshirilmoqda, ayrim hududlarda chiqindilarni alohida yig'ish konteynerlari o'rnatilgan. Bu siyosat mamlakatda sirkulyar iqtisodiyot uchun institutsional asos yaratmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgani uchun bugungi kunda sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish va kengaytirish borasida xorijiy investitsiyalar oqimi muttasil ravishda ortib bormoqda. Masalan, Xitoy va Janubiy Koreya investorlari chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini qurmoqda, Yevropa Ittifoqi grantlari orqali ekologik loyihalar moliyalashtirilmoqda, Xalqaro moliya institutlari "yashil iqtisodiyot" loyihalarini qo'llab-quvvatlamoqda. Xususan, Toshkent va Samarqandda chiqindidan energiya ishlab chiqarish (waste-to-energy) loyihalari rejalashtirilgan, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindi qayta ishlash loyihalariga investitsiyalar oshmoqda.

Bu esa sirkulyar iqtisodiyotga o'tishda moliyaviy resurs bazasi shakllanayotganini ko'rsatadi. Mavjud imkoniyatlarga qaramay, O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash darajasi taxminan 5–10% atrofida bo'lib, u kam hajmni tashkil etadi. Bu muammoning mohiyati chiqindilar saralanmagan holda yig'ilishiga, katta hajmdagi chiqindilar poligonlarga yuborilishiga, ikkilamchi xomashyo yetarli darajada qayta ishlanmasligiga borib taqaladi. Masalan, maishiy chiqindilarning katta qismi (organik, plastik, qog'oz aralash holda) chiqindi poligonlariga tashlanadi, qayta ishlash korxonalarini xomashyo yetishmagani uchun to'liq quvvatda ishlamaydi. Bu holat iqtisodiyotda katta miqdordagi yo'qotilgan resurslar mavjudligini bildiradi.

Texnologik bazaning yetarli emasligi ham muhim muammolardan hisoblanadi. Ko'plab qayta ishlash korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Ushbu muammoning sabablari yuqori texnologiyali uskunalarning qimmatligi, mahalliy ishlab chiqarishning sustligi, texnologiya transferining cheklanganligi kabilar hisoblanadi. Masalan, plastik chiqindilarni chuqur qayta ishlash va kimyoviy qayta ishlash texnologiyalari deyarli mavjud emas. Elektron chiqindilarni qayta ishlash tizimi rivojlanmagan.

Natijada chiqindilar to'liq qayta ishlanmaydi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratilmaydi. Aholining ekologik madaniyati talab darajasida shakllanmaganligi va pastligi ham muammolar qatorida mavjud. Sirkulyar iqtisodiyotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan aholining xulq-atvoriga bog'liq bo'lib, muammoning ko'rinishlari, chiqindilarni saralab tashlash odati shakllanmagan, qayta ishlashning ahamiyati yetarli darajada anglashilmagan va ekologik mas'uliyat talab darajasida rivojlanmaganligida yuzaga chiqadi. Masalan, alohida chiqindi konteynerlari mavjud bo'lsa ham, ko'pincha chiqindilar aralash tashlanadi, plastik chiqindilar ko'chalarda yoki ochiq hududlarda tashlab ketiladi. Bu esa sirkulyar tizimning asosiy bosqichi — saralash jarayonini izdan chiqaradi. Sirkulyar iqtisodiyot chiqindilarni qayta ishlash, yashil energetika, qayta tiklanuvchi energiya, bioiqtisodiyot sohasiga investitsiya jalb qilish imkonini beradi.

Bu esa iqtisodiy o'sishga yangi turtki bo'ladi. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot chiqindi logistika tizimini, qayta ishlash sanoatini, ekologik xizmatlarni, "yashil texnologiyalar"ni va boshqa shu kabi yangi sohalarni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Natijada yangi ish o'rinlari paydo bo'lib, aholining bandlik darajasi ortadi. Sirkulyar iqtisodiyot loyihalari katta investitsiyalar talab qilgani uchun moliyalashtirish muammolari mavjud. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini qurish, energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, ekologik infratuzilmani barpo qilish kabilarni namuna sifatida keltirish mumkin. Bu vaziyat davlat va xususiy sektor hamkorligini talab qilishi mumkin. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda chiqindilarni toifasi va turi bo'yicha alohida yig'ish tizimi shakllangan.

Ammo O'zbekistonda chiqindilarni saralash madaniyati yetarli darajada shakllanmagan, aholining ekologik savodxonligi talab darajasida emas. Bu sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishiga to'g'anoq bo'ladi va uni sekinlashtiradi. Ayni paytda, ayrim institutsional muammolar mavjud bo'lib, davlat organlari o'rtasida koordinatsiya yetarli darajada rivojlanmagan, monitoring tizimi zaif, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari cheklangan. Milliy ishlab chiqarish tizimida sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishini tezlashtirish uchun chiqindilarni saralash

tizimini joriy etish orqali har bir hududda plastic, qog‘oz, shisha, organik chiqindilar alohida yig‘ilishi kerak. Shuningdek, “Yashil texnologiyalar”ni joriy etish uchun chiqindidan energiya ishlab chiqarish, biogaz texnologiyalarini qo‘llash va qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish zarur. Bundan tashqari, investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun davlat tomonida, soliq imtiyozlarini, subsidiyalarni, davlat-xususiy sheriklik (PPP) amaliyotini joriy qilish kerak. Ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun maktablarda ekologik ta’limni tashkil etish, ommaviy axborot kampaniyalarida tashviqotlar qilish, chiqindilarni saralash va ajratish uchun targ‘ibot ishlarini amalga oshirish zarur.

Sirkulyar iqtisodiyot XXI asr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim modeli bo‘lib, bu modelda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatini ta’minlangan.

Tadqiqotning xulosa va takliflari. Tadqiqot natijasida milliy ishlab chiqarish tizimida sirkulyar iqtisodiyot uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilinadi, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish zarurligi asoslab berildi. Shu bois, O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu model ishlab chiqarishda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi, ekologik muammolarni kamaytiradi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Umumiy tahlillardan milliy ishlab chiqarish tizimida sirkulyar iqtisodiyotni joriy etish uchun davlat siyosatining mavjudligi, investitsiya oqimi oshayotganligi, sanoat shakllanayotganligi kuchli tomonlar sifatida, tizimli infratuzilma yetishmasligi, texnologiya past darajadaliigi, aholi ishtiroki sustligi zaif tomonlar sifatida kelib chiqmoqda. Shu bois xulosa sifatida O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lib, lekin tizim hali shakllanmaganligini aytish mumkin. Shuning uchun mamlakatda infratuzilmani rivojlantirish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va aholining ekologik madaniyatini oshirish ustuvor vazifa bo‘ladi. Shu sababli sirkulyar iqtisodiyot

modelini joriy etish mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasining muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (GOST usulida)

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Oʻzbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida : qaror, 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son. – Toshkent, 2019.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. 2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida : qaror, 2022-yil 2-dekabr, PQ-436-son. – Toshkent, 2022.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy taʼsirini kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida: farmon, 2024-yil 4-yanvar, PF-5-son. – Toshkent, 2024.
4. Bocken N. M. P., Short S. W., Rana P., Evans S. Sustainable business model archetypes: A literature and practice review // *Journal of Cleaner Production*. – 2014. – Vol. 65. – P. 42–56.
5. Ellen MacArthur Foundation. Completing the picture: How the circular economy tackles climate change. – [S.l.] : Ellen MacArthur Foundation, 2019.
6. European Commission. A new circular economy action plan: For a cleaner and more competitive Europe. – Brussels : European Commission, 2020.
7. Kirchherr J., Reike D., Hekkert M. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions // *Resources, Conservation and Recycling*. – 2017. – Vol. 127. – P. 221–232.
8. Korhonen J., Honkasalo A., Seppälä J. Circular economy: The concept and its limitations // *Ecological Economics*. – 2018. – Vol. 143. – P. 37–46.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Green growth indicators. – Paris : OECD Publishing, 2021.
10. Stahel W. R. The circular economy // *Nature*. – 2016. – Vol. 531, No. 7595. – P. 435–438.
11. United Nations. The Sustainable Development Goals Report. – New York : United Nations, 2022.
12. United Nations Environment Programme (UNEP). Global environment outlook. – Nairobi : UNEP, 2021.
13. World Bank. What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management to 2050. – Washington, DC : World Bank, 2018.
14. World Economic Forum. A new circular vision for electronics. – Geneva : World Economic Forum, 2019.

15. Asian Development Bank. Green economy transition in Asia and the Pacific. – Manila : Asian Development Bank, 2021.
16. European Environment Agency. Circular economy in Europe: Developing the knowledge base. – Copenhagen : EEA, 2020.
17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonning statistik yillik to‘plami. – Toshkent, 2024.
18. World Bank. Resource efficiency and circular economy in developing countries. – Washington, DC : World Bank, 2020.
19. Journal of Industrial Ecology. Industrial ecology and circular economy research. – New Haven : Yale University, 2022.
20. Journal of Sustainable Development. Sustainable development and circular economy. – Toronto : Canadian Center of Science and Education, 2021.
21. Circular economy and environmental policy // Environmental Economics and Policy Studies. – 2020. – Vol. 22, No. 4. – P. 503–520.
22. Journal of Cleaner Production. Circular economy research and sustainable production. – 2022.
23. Waste Management. Waste management and recycling systems. – 2021.
24. Ecological Economics. Ecological economics and circular economy. – 2022.
25. United Nations Environment Programme (UNEP). Global resources outlook. – Nairobi : UNEP, 2019.